
Rishton tumanida chet el universiteti ochiladi!!!

Rishton tumani sobiq sanoat va kasb hunar kolleji binosida Polsha davlatining nufuzli universiteti "Adam Miskeyevich" nomidagi universitetning Rishton filiali ochilishi bo'yicha ijobiy kelishuvlar amalga oshirildi. Joriy yil 27 aprel kuni Toshkent shaxrida bo'lib o'tgan IREG- 2023 xalqaro konfirensiyada mazkur universitet rektori Bogumila Kanevskaya hamda xalqaro ishlar bo'yicha prorektori Rafal Vitkovski va bir qator proffesorlar ushbu konfirensiyaga taklif etilgan bo'lib ushbu yig'ilishda Rishton tuman hoimligi vakillari bilan shu yerda uchrashish kelishilgan edi.Uchrashuvda tuman hokimi o'rinbosari Abduqahhor Jo'raboyev hamda ushbu universitetning sobiq talabasi Siddiqov Abdusalom birgalikda universitet rahbariyati bilan uchrashib berilgan taklif bo'yicha atroflicha tushuntirish va takliflar berganlar.Uchrashuvda universitet rektori Rishtonda ushbu loyihani amalga oshirish ularni ham qiziqtirgani va ilgari surilgan taklif uchun o'z minnatdorchiligini bildirdi.

2023-04-28 18:44:12